

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHAROFADDINOV SHIHNAZAR ANVAROVICH

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN
TA'LIMNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasining avtorefarati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Sharofaddinov Shihnazar Anvarovich

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda natijaga yo'naltirilgan ta'limning metodik tizimini takomillashtirish.....3

Шарофаддинов Шихназар Анварович

Совершенствование методической системы образования по подготовке учащихся профессиональных образовательных учреждений к профессиональной деятельности, ориентированной на результат.....25

Sharafaddinov Shikhnazar Anvarovich

Improving the methodological system of result-oriented education in preparing students of professional educational institutions for professional activity.....49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

Published Works.....53

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC. 05/29.12.2023.PED.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

SHAROFADDINOV SHIHNAZAR ANVAROVICH

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASHDA NATIJAGA YO'NALTIRILGAN
TA'LIMNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped697 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmuxamedov Murodullo Maxmudovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Olimov Qahramon Tanzilovich
Pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatov Dilmurod Normurodovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "___" _____ dagi ___ - raqamli reestr bayonnomasi).

R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

S.Yu.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

X.Sh.Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning rivojlangan davlatlarida professional ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Professional ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash, professional ta'lim mazmunini ta'lim natijalariga asoslangan holda takomillashtirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim mazmunini takomillashtirish va professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilayotgan Princeton University (AQSh), Manchesters University (Angliya), National Advice on Pedagogical Technology (Angliya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta'lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot ta'lim markazlarida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan.

Jahonning etakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan: AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan "Career Services" markazi tomonidan malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi mezonlar sifatida pedagogik va nostandart tafakkur tarzi, kasbiy-pedagogik mediakompetentligini o'zaro integrallash (Oslo Metropolitan University), raqamli kompetensiyalarning rivojlanganlik monitoringi mexanizmlari (University of Limerick), mediakompetentlikni intellektual va psixosotsial rivojlantirish tizimi (University of Valencia), Campbellsville University (AQSh), Indiana University of Bloomington (AQSh), SRH Hochschule fur Gesundheit Gera (Germaniya), Fliedner University of Applied Sciences Dusseldorf (Germaniya), University of Leipzig (Germaniya), University of Plymouth (Buyuk Britaniya), University of Hull (Buyuk Britaniya), Aichiy University of education, Seigakuin University (Yaponiya), Joetsu University of Education (Yaponiya), Korea National University of Education (Janubiy Koreya), Bucheon university (Koreya), Joetsu University of Education (XXR), Beijing Normal University (XXR), Singapurning Nan'yan texnologiya universiteti Biznes maktabida esa, kreativ qobiliyatlar muhim omil sifatida talqin etilgan.

Respublikamizda yangi professional ta'lim tizimining isloh qilinishi hozirgi kunda maqsadli raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishga ko'proq ahamiyat berishni taqazo qilmoqda. Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim tizimining raqobatbardoshligini shakllantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida samarali amalga oshiriladi. Professional ta'lim tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish, jumladan, kasb standartlarini, professional ta'lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqish, kompetensiyaga

asoslangan ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-158-sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari va 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-son "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi VM-466-sonli "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda professional ta'limi tizimini takomillashtirishga R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjabayev, M.M.Xolmuhammedov, Sh.S.Sharipov, S.Yu.Ashurova, N.F.Abdunazarova, O.A.Abduqudusov, N.Alimov, G.M.Anorqulova, L.V.Golish, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, P.Z.Ishanov, K.J.Mirsaidov, N.N.Musaeva, B.Nuridinov, X.F.Rashidov, D.Razzoqov, N.I.Taylakov, O'Q.Tolipov, O.To'raqulov, D.M.Fayzullaeva, R.Q.Choriyev, A.A.Shoyusupova, M.B.Urazova, J.A.Hamidov va boshqalar o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Professional ta'limda "kompetensiya" va "kompetentlik" kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va ta'lim natijalarini baholash, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, kasb ta'limi o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish masalalari Q.M.Abdullayeva, S.Yu.Ashurova, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, H.F.Rashidov, M.B.Urazova, M.M.Xolmuhammedov, A.R.Xodjabayev, Sh.S.Sharipov, H.Sh.Qodirov, O.A.Qo'ysinov va boshqalarning ishlarida o'rganilgan¹.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida Ye.V.Bondarevskaya, E.F.Zeer,

¹ Djuraev R.X. Ведущие тенденции образования в XXI веке // Uzluksiz ta'lim. – T., 2008. – 6-son. – B. 35-41; Qurbonov Sh.E., Seytxalilov Ye.A., Inoyatov U.I., Yuzlikaeva E.R. Диагностическая деятельность учителя в современной педагогической теории и практике его работы: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 179 s.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... dis. Avtoref. – T.: TDPU, 2007. – 47 b.; Sharipov Sh.S. Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов труда и профессионального образования): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – T.: UzNIIPN, 2000. – 20 с.

V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya, F.T.Fomenko, Ye.N.Stepanov, V.A.Skakun, S.Ya.Batishhev, V.A.Slastyonin, K.Angelovskiy, G.K.Selevko, M.V.Klarin, M.S.Burgin, L.S.Podimova kabi olimlar tamonidan professional ta'limda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar².

Xorijiy mamlakatlar olimlari A.K.Ellis, Lixiang Yan, Roberto Martinez, C.Paulus, Aroma Dabas, Annalena Felber Allais, G.Bereiter, C.Scardamalia, M.Fullan va boshqalarning ishlarida ta'lim natijalari (Learning Outcomes)ga doir nazariy va amaliy tahlillar o'z ifodasini topgan.

Olib borilgan izlanishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, professional ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025 yy.) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda natijaga yo'naltirilgan ta'limning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishning zamonaviy pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirish;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini natijaga yo'naltirilgan ta'lim samaradorligini ta'minlovchi simulyatsion ta'lim texnologiyasi asosida takomillashtirish;

natijaga yo'naltirilgan ta'lim muhitida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik jarayoni.

² Skakun V.A. Основы педагогического мастерства: Учебное пособие. – М.: Форум: INFRA-M, 2010. – 208 с.; Slastenin V.A. i dr. Pedagogika: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академиya, 2006. – 576 с.; Zeer E.F. Ключевые квалификации и компетенции в личносно-ориентированном профессиональном образовании // Образование и наука. – М. 2000. – № 3 (5). – С. 90-103; Бондаревская Е.В. Личностно-ориентированный подход как основной путь модернизации образования: Доклад на августовскую конференцию работников и организаторов образования. – R/n/D., 2002. – 46 с.; Serikov V.V. Личностно-развивающая функция непрерывного образования // Личностно-развивающая функция непрерывного образования. – М., 2014. – № 1. – С. 29-39; Yakimanskaya I.S. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Sentyabr, 1999. – 96 с; Stepanov Ye.N. Личностно-ориентированный подход в педагогической деятельности. – М.: Sfera, 2003. – 128 с.

Tadqiqotning predmeti natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzuiga oid psixologik-pedagogik, o'quv-metodik manbalar tahlili; DTS, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini o'rganish va tahlil qilish; modellashtirish (loyihalash); pedagogik-ijtimoiy (kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test); pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari kasbga o'qitish natijalari va o'qitish natijasida shakllanadigan kompetensiyalarni uyg'unlashtirish, kasbga o'qitish va mehnat bozorining malakalarga ehtiyojlari orasida o'zaro aloqadorlikning mustahkam tizimini shakllantirish hamda kasbga o'qitish va mehnat tajribasi natijalarining malaka talablariga va kasb standartlariga mosligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli o'quv maqsadlarini aniq belgilab olish va natijaga erishishni ta'minlashning metodik tizimi elementlari o'rtasidagi aloqalarni va funksional yuklanishni ta'lim natijasi (Learning Outcomes)ga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi maqsadga yo'naltirilganlikni ta'minlash va ta'lim natijalari (Learning Outcomes)ni aniq belgilash hamda debriefing orqali o'quvchilarning reflektiv fikrlashini faollashtirish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash metodikasi o'quvchilarning kasbiy kompetentligini xolis va haqqoniy baholash (objective assessment)ni kasbiy standartlarda talab etilgan kasbiy tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini ta'minlovchi demo-imtihonlar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Kompetensiyaga asoslangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish” deb nomlangan metodik qo'llanma yaratilgan;

“Kasb standartlari asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyanoma” yaratilgan;

“Kompetensiyaga asoslangan dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma” yaratilgan;

“O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida kasb standartlarini ishlab chiqish bo'yicha metodik yo'riqnoma” yaratilgan;

“Dual ta'lim shakli bo'yicha o'quvchilarning o'qitish natijalarini baholash bo'yicha metodik tavsiyalar” ishlab chiqilgan;

professional ta'lim yo'nalishlarining kompetensiyaga asoslangan malaka talablari va o'quv rejalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan

olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarinnning ilmiy ahamiyati natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi, kompetensiyaga asoslangan professional ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishning tashkiliy didaktik modelini takomillashtirilganligi hamda kompetensiyaga asoslangan professional ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida kompetensiyaga asoslangan professional ta‘lim dasturlari yaratilganligi, professional ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha huquqiy-me‘yoriy hujjatlar va chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, professional ta‘limning kompetensiyaga asoslangan metodik ta‘minotini yaratish texnologiyasi ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini ta‘lim natijasi (Learning Outcomes)ga yo‘naltirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali pedagogik shart-sharoitlariga oid taklif va tavsiyalari respublikadagi professional ta‘lim muassasalarida “3.54.04.02 – Oqava suv va suv ta‘minoti tizimlaridan foydalanish va montaj qilish ustasi” va “3.51.02.07 – Elektromontyor” tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv ta‘minotni yaratishda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 4/17-4/2-845-son ma‘lumotnomasi). Mazkur tavsiya va takliflar professional ta‘lim muassasalarida “3.54.04.02 – Oqava suv va suv ta‘minoti tizimlaridan foydalanish va montaj qilish ustasi” va “3.51.02.07 – Elektromontyor” tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilgan;

natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli va professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasiga oid taklif va tavsiyalari asosida “O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida kasb standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha metodik yo‘riqnoma” yaratilgan va o‘quv jarayonida qo‘llanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 4/17-4/2-845-son ma‘lumotnomasi). Natijada, professional ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilgan;

natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini demo-imtihonlar asosida baholash metodikasini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalaridan “IL-5821081323

– Dual ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovasion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish” nomli innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 4/17-4/2-845-son ma’lumotnomasi). Natijada, professional ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini baholashning metodik tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat bo’lib, asosiy matn 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o’rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Professional ta’lim muassasalari o’quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda natijaga yo’naltirilgan ta’limni amalga oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida professional ta’limda natijaga yo’naltirilgan ta’limni amalga oshirishning zaruriy shartlari, mohiyati va mazmuni, professional ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning pedagogik muammosi, professional ta’lim muassasalari o’quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishning o’ziga xos xususiyatlari, professional ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Professional ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni qo’llab-quvvatlash, turli yoshdagi ta’lim oluvchilarda mehnat bozoriga yo’naltirilgan bilim ko’nikma va kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularni iqtisodiyot tarmoqlarida munosib ish o’rinlarini topish imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Professional ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o’z mohiyatiga ko’ra yoshlarning intellektual salohiyati va imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, hayotda munosib o’rin topishi va farovon hayot kechirishi, mehnat bozorida

raqobatbardosh kadr sifatida o'zini namoyon etishi uchun zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini shakllantirishga qaratilgan.

Professional ta'lim jarayonini o'qitishning zamon talablariga mos ravishda tashkil etish maqsadida uning yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Professional ta'limning yangi paradigmasini shakllantirishning o'zagini kompetensiyalar atamalarida ifodalangan o'quv natijalari tashkil etadi. Asosiy e'tibor o'quv jarayonining o'ziga emas, balki ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rsatiladigan kompetensiyalarda ifodalangan natijalarni baholashga qaratiladi.

Ta'lim natijalarini aniqlash ta'lim dasturini ishlab chiqishdagi birinchi qadamdir. Shu bilan birga, ta'lim natijalarini aniqlash barcha keyingi bosqichlar uchun asosiy jarayon bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim natijalarining aniq ta'rifisiz ta'lim mazmunini aniqlash imkonsizdir.

Shundan kelib chiqib tadqiqotimizda natijaga yo'naltirilgan ta'lim tushunchasiga ishchi ta'rif berdik va tadqiqotlarimizda ushbu ta'rifga tayandik. Natijaga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quv jarayonini aniq, oldindan belgilangan maqsad va natijalarga erishishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu ta'lim turida o'quv jarayoni va metodlari shu tarzda tashkil etiladiki, o'quvchilar olgan bilimlarini hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashga va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga undaydi, shuningdek, ularda mustaqillik va innovasion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mutaxassisning mehnat vazifalaridan kelib chiqib, ta'lim natijalarini aniqlash zarur bo'ladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim dasturlarida o'quv natijalari kompetensiya (malaka) sifatida ta'riflangan.


Shuni ta'kidlash kerakki, "kompetentlik" atamasining bir nechta ta'riflari mavjud bo'lib, masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti "kompetentlik" deganda, mutaxassisning biror vazifani sifatli bajarishi uchun zarur bo'lgan mahorat, bilim, ko'nikma hamda mutaxassisning munosabati tushuniladi. Ta'lim dasturini ishlab chiqishda "kompetentlik" atamasini qo'llashning kamida ikkita afzalligi mavjud. Birinchidan, bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni farqlashning hojati yo'q. Ikkinchidan, har qanday hayotiy vaziyatni, shu jumladan, kasbiy vazifalarni sifatli bajarishni hal qilish uchun ko'nikma, bilim, qobiliyat va munosabatlarning butun majmuasi zarurdir. Aynan mana shu kompleks "kompetentlik" atamasini ifodalaydi.

Kasbiy kompetensiyalar professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatoridagi kasb va u bo'yicha beriladigan kvalifikatsiyalar malaka darajasi ushbu kasb bo'yicha ishlab chiqilgan kasbiy standartdagi belgilangan malaka darajasi o'zaro mos bo'lishi kerak.

Kasbiy standartdagi mehnat funksiyalari va ushbu mehnat fuksiyalarini bajarish uchun zarur mehnat harakatlari kasbiy kompetensiyalar sifatida aks etadi.

Ta'lim dasturlarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun o'qitish natijalari va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan professional modul aniqlanadi (1-rasm). Kasbiy standartlarda mehnat funksiyasi mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq mehnat harakatlari majmuasi sifatidir.


Kasbiy kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga asoslangan holda mutaxassisga kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniyatini beradigan mehnat vazifalari majmuasini hal qilish qobiliyatidir.



1-rasm. Kompetensiya, modul, o'quv natijalari va baholash mezonlarining o'zaro bog'liqligi

Shunday qilib, mutaxassisning mehnat vazifalari majmuasini hal qilish qobiliyati kasbiy kompetensiyadir, ya'ni kasbiy kompetensiya mehnat funksiyasini bajarish sifatida belgilanadi.

Kasbiy modul – bu o'quv dasturining mustaqil va to'liq bo'limi bo'lib, talabalarning kompetensiyalar asosida kasbiy vazifalar to'plamini hal qilish qobiliyatini egallashiga qaratilgan.



2-rasm. Kasb standartning tarkibiy qismlari va ta'lim dasturining bog'liqligi

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslangan holda, kasb standartning tarkibiy qismlari va ma'lum bir kvalifikatsiya bo'yicha ta'lim dasturining o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkin (2-rasm).

Odatda kasbiy standartning mehnat funksiyalariga keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilarning ta'lim jarayonida egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi. Lekin ko'p hollarda mehnat funksiyalarini kasbiy kompetensiyalar sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib qo'yib bo'lmaydi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun har bir umumlashtirilgan mehnat funksiyasi doirasidagi mehnat funksiyalari va mehnat harakati mantiqiy tahlil qilinib ma'lumotlarni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tahlil qilish jarayonida shunga ahamiyat berish kerakki, ta'lim dasturi qaysi ta'lim darajasiga ishlab chiqilayotgan bo'lsa, kasbiy standartning o'sha malaka darajalariga tegishli toifalarni talablaridan foydalanish lozim.

Mehnat harakatlari asosida kasbiy kompetensiyani aniqlab olgandan keyin kasbiy standartdan mehnat harakati, ya'ni kompetensiyani bajarish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalar ajratib olinadi. Mazkur bilim va ko'nikmalar o'qitish natijasida sifatida aks etadi. Demak, kasbiy kompetensiyani bajara olish uchun talab etiladigan bilim va ko'nikmalar o'qitishning natijasi hisoblanadi. Bitta kasbiy kompetensiyada bir yoki bir nechta o'qitish natijasi bo'lishi mumkin. Bitta kompetensiya doirasida shakllanadigan o'qitish natijalarining maksimal miqdori 7 tadan ko'p bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirishning amaliy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish

mazmuni, natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning modeli hamda kompetensiyaga asoslangan professional ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish metodikasi yoritib berilgan.

Ta‘lim natijalari (kompetensiyalari)ga o‘tish dunyodagi deyarli barcha rivojlanishga yo‘naltirilgan kasbiy ta‘lim va o‘qitish tizimlarini tavsiflovchi asosiy prinsiplial o‘zgarishdir. Pedagogika fani rivojining borishi shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ta‘minlash tizimli bo‘lsa va bu tizim o‘qitish hamda tarbiyalash jarayonlarining barcha jihatlarini va bevosita ifodalanishini qamrab olgan bo‘lsa, kadrlar tayyorlash va uni og‘ishmay takomillashtirishni boshqarishning samarali quroli bo‘ladi. U shunday bo‘lishi uchun uning tavsifida loyihalananayotgan metodik tizimning barcha elementlarini aks ettirish zarur.

Bo‘lg‘usi metodik tizimning tavsifi turli xil pedagogik hujjatlar: rejalar, dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar va h.k.lar shaklida amalga oshiriladi.

Tizimli-metodik ta‘minot tarkibida ta‘limni amalga oshirishning aniq dasturlarini ishga tushirish uchun maxsus amaliy ishlanmalarni ajratib olish mumkin. Shuning uchun metodik ta‘minlanganlikka xususiy metodikalar, turli xil kontingentdagi o‘quvchilar bilan alohida mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikalari, o‘quv rejalari va dasturlarini tuzish metodikalari va boshqalar kiradi.


Professional ta‘limning metodik tizimi elementlari o‘rtasidagi tizimni tashkil etuvchi aloqalarni, funksional yuklanishni, ahamiyatini har bir elementning xususiy maqsadini tahlil qilish tizimni to‘rt bosqichli tizim sifatida aniqlashga imkon beradi (3-rasm).

Birinchi bosqichda metodik tizimning komponentlari kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan talablarni belgilovchi hujjatlar milliy malaka ramkasi, marmoq malaka ramkasi va kasb standartlari hisoblanadi.

Professional ta‘lim barcha elementlarining tavsifi		Metodik tizim elementlarining tarkibiy bosqichlari	Tizimni tashkil etuvchi omil – bitiruvchining kasbiy-shaxsiy modelini amalga oshirish
	← I	Milliy malaka ramkasi Tarmoq malaka ramkasi Kasb standartlari	
	← II	Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash o‘quv rejasi (O‘R)	
	← III	Professional ta‘limdagi kasbiy tayyorgarlik fanlarining o‘quv dasturlari (O‘D): O‘D1, O‘D2 ...	
	← IV	Mazmunni amalga oshirishni ta‘minlovchi metodik vositalar (texnologiya va ularning metodikasi bilan birgalikda), o‘rgatuvchi modullar, amaliy topshiriqlar, tayyorgarlik sifatini tashxislash materialari, metodik tavsiyalar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar	

3-rasm. Professional ta‘limda o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning

metodik tizimi tuzilmasi



4-rasm. Natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim

muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Ikkinchi bosqichda tayyorgarlik maqsadlari va mazmunini ochib beruvchi metodik hujjatlar – kasbiy ta'limning o'quv rejaları hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda kasbiy tayyorgarlik maqsadlari va mazmunini detallashtirish (batafsil tekshirish) o'quv rejasi fanlari dasturlarida amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda tizimning komponentlari tanlab olingan mazmunni (metodika, texnologiyalar va ularning metodika bilan birga bo'lishi) amalga oshirishni ta'minlovchi metodik vositalar hisoblanadi.


Tadqiqotimiz jarayonida ishlab chiqilgan professional ta'limda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi tuzilmasi asosida kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli takomillashtirildi (4-rasm).

Hozirgi vaqtda turli xil ilmiy sohalarda va yo'nalishlarda modellashtirish metodi juda keng tarqalgan. "Modellashtirish" atamasi pedagogika faniga texnik bilimlar sohasidan kirib kelgan.

Modellashtirish – bu real obyektни ideal, dastlabki obyektga o'xshash yoki boshqacha tarzdagi obyekt bilan o'rnini almashtirish jarayonidir. Bizning tadqiqotimizda model deganda keng ma'noda soddalashtirilgan (sxemalashtirilgan yoki ideallashtirilgan) va ko'rgazmali shaklda voqelikning u yoki bu qismini takror hosil qiluvchi nazariy yoki amaliy yaratilgan tuzilma tushuniladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini maqsadli bloki ijtimoiy buyurtmani aks ettiradi va professional ta'lim tizimining o'quv-me'yoriy hujjatlarida o'z ifodasini topadi.

Bizning fikrimizcha, o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda jarayon ketmaketligini o'zgartirish kerak. Unga muvofiq kasb yoki mutaxassislikning malaka talabi asosida dastlab o'quv dasturlari uning asosida esa, o'quv rejasi shakllantirilishi kerak. Bunda dastlab mazkur fan doirasida kompetensiyani shakllantirish uchun mazkur fan (modul) qancha muddat o'qitilishi kerakligi aniqlanadi. Bu jarayoni har bir fan kesimida amalga oshiriladi, shundan keyin ular asosida kuasbning o'quv rejasi shakllantiriladi. Chunki fan nomi va uni o'qitish muddatini fan dasturi ishlab chiqish jarayonida aniq bo'ladi. Demak, kasb standarti asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish quydagi 5-rasmida ko'rsatilgan ketmaketlikda amalga oshiriladi.



5-rasm. Kasb standarti asosida ta'lim dasturlarini

ishlab chiqish ketma-ketligi

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan modul dasturining ishlab chiqishda quyidagi savollarga e'tibor berish lozim: 1) o'quvchi bitirgandan keyin nima qila oladi? Boshqacha qilib aytganda, kasbiy sohasi talablarini tavsiflash kerak; 2) ish doirasida o'z vazifalarini samarali bajarish uchun o'quvchi nimani o'zlashtirishi kerak? Shuning uchun o'quv dasturiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish zarur; 3) o'quvchi ish doirasida o'z vazifalarini samarali bajara olishini qanday aniqlayman? Boshqacha aytganda, baholash talablarini shakllantirish lozim.

Modul dasturlarini mazmunini shakllantirishda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalariga asoslanadi. O'zlashtirish natijalari ta'lim oluvchilarning egallaydigan kompetensiyalari ko'rinishida shakllantiriladi. Ularni rejalashtirish bilan bir qatorda ta'lim metodlari va natijalarini baholash ham belgilab olinadi.

Modul dasturining o'zlashtirish natijalari, o'z navbatida, mutaxassislik (kasb)ni egallash o'quv natijalarining tarkibiy komponenti sifatida ishtirok etadi. O'zlashtirish (o'qitish) natijalarini shakllantirishda kasbiy standartdagi mehnat funksiyalarning zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalari inobatga olinadi. O'zlashtirish (o'qitish) natijalari o'quv dasturi yakunida o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. O'zlashtirish natijalari o'quv dasturini loyihalash va o'qitish hamda baholash usullarini tanlash uchun ham asos bo'lib hisoblanadi. O'qitish natijalari shakllanadigan kompetensiya darajalarini namoyon etish vositasi hisoblanib, ularni shakllantirishda ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan pirovardida egallaydigan natijalari sodda shaklda ifodalanishi va o'qitish natijalarini baholash metodi bilan uyg'unlashtirilishiga ahamiyat beriladi.

O'qitish natijalari quyidagi tasnifga ega bo'lishi lozim:

Aniq – ta'lim oluvchining bilim va ko'nikmalari bo'yicha erishishi lozim bo'lgan aniq holatini tavsiflab berishi.

O'lchovlilik – baholash va o'lchash imkoniyati.

Erishishlik – ta'lim faoliyati bilan ta'minlangan ta'lim oluvchi, modul dasturi uchun tegishli darajadagi majmui.

Muvofiqlik – dastur maqsadlariga (ta'lim standartlarga) va bir fan (modul)dan ikkinchisiga o'tish imkoniyati.

Mutanosiblik – dastur uchun ajratilgan vaqt hamda mazmunining hajmi bilan mutanosib bo'lishi.

Jozibadorligi – ta'lim oluvchi belgilangan o'quv maqsadlariga erishishdan manfaatdor bo'lishi.

Ta'lim dasturidagi har bir kvalifikatsiya uchun professional modullar alohida aniqlanadi. Har bir professional modul alohida kasbiy kompetensiyani shakllantirishi kerak. Professional modullarni shakllantirishda birinchi qadam o'qitish natijalarini aniqlab olish hisoblanadi. O'qitish natijali aniqlangandan keyin ushbu o'qitish natijasiga erishish uchun qaysi mavzularni va qancha muddat o'qitish kerakligi belgilanadi. Bitta o'qitish natijasiga erishish uchun bir nechta mavzular o'qitilishi mumkin. O'qitiladigan mavzularning soni va soati o'qitish natijasining murakkablik darajasiga bog'liq bo'ladi. O'qitish natijalariga erishish

uchun o'qitiladigan mavzular professional modullarni tashkil etadi. Bunda bir nechta o'qitish natijasi bitta professional modulni tashkil etishi mumkin.

Shunday qilib, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga belgilangan talablarni kompetensiyalarning shakllanishi ko'rinishida aks etishi "bilim"ga asoslangan ta'limdan "kompetensiya"ga asoslangan ta'limga o'tishni anglatadi. Bunda ta'lim jarayoni mazmuni "nima o'qitilyapti" degan yondashuvdan "o'quvchi qanday kompetensiyaga ega, nimani biladi va bajarishga tayyor" degan ta'lim natijasiga o'tadi.

Bizning tadqiqotimiz jarayonida natijaga yo'naltirilgan ta'lim metodikasini takomillashtirishda bir nechta zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanildi. Ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Flipped klassrum (akasinch ta'lim) metodi – o'quvchilar avvalida darsdan tashqarida nazariy bilimlarni mustaqil o'rganadilar va dars vaqtida amaliyot bilan shug'ullanadilar.

Contextual Learning (Holatlarga asoslangan ta'lim) – bu ta'lim metodi o'quv jarayonini real hayot va ish haqiqatiga bog'lashni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi qiziqishini va ma'noliligini oshirishga xizmat qiladi, chunki o'quvchilar o'rgangan narsalarini o'z hayotlarida qanday qo'llash mumkinligini tushunadilar.

Problem-Based Learning metodida o'quvchilarga muayyan, murakkab muammo taqdim etiladi. Bu muammo haqiqiy hayotdan olingan bo'lishi yoki o'quvchilarda qiziqish uyg'otuvchi ssenariy asosida bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarni muammoni tushunish, uni tahlil qilish va echim topish jarayoniga jalb qiladi. Ushbu metod o'quvchilardagi tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va murakkab muammolarni echish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ular turli manbalardan ma'lumotlarni izlab, tahlil qiladilar va turli echimlarni ko'rib chiqadilar.

Simulyatsion ta'lim – o'ziga xos ta'lim texnologiyasi bo'lib, unda real hayotiy voqelikka yaqinlashtirilgan holda sun'iy ravishda tashkil etilgan muhitda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlar professional ta'lim tizimi muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarni mehnat bozori talablari asosida ularda turkum kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etishga asos yaratdi.

Dissertatsiya ishining **"Natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot ishining nazariy g'oyalarni amalda sinab ko'rish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yo'lga qo'yilishi va olingan natijalarning matematik-statistik va qiyosiy tahlili, xulosa hamda tadqiqot natijalari asosida chiqarilgan taklif va tavsiyalar keltirildi.

